

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.05.2020.I.66.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

XASANOVA ZAMIRAXON TOLIBJON QIZI

**KICHIK BIZNESDA MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH FAOLIYATINI
RIVOJLANTIRISH MASALALARI**

08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

**IQTISODIYOT FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of the abstract dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD) in
economic sciences**

Xasanova Zamiraxon Tolibjon qizi

Kichik biznesda maishiy xizmat ko'rsatish faoliyatini rivojlantirish masalalari..... 3

Хасанова Замирахон Толибжон кизи

Вопросы развития деятельности бытовых услуг в малом бизнесе 27

Khasanova Zamirakhon Tolibjon kizi

Issues of development of household services activities in small businesses 51

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 56

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.05.2020.I.66.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

XASANOVA ZAMIRAXON TOLIBJON QIZI

**KICHIK BIZNESDA MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH FAOLIYATINI
RIVOJLANTIRISH MASALALARI**

08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

**IQTISODIYOT FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Iqt3647 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Namangan muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasi (www.nammti.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Rashidov Raxmatillo A'lojonvich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Israilova Dilfuza Karimovna
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Ibragimov Isroil Usmanovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan muhandislik-qurilish instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.05.2020.I.66.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "21" 09 soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (0569) 228-76-71, faks: (0569) 228-76-75, e-mail: niei_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan muhandislik-texnologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (309 -raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (0569) 228-76-71).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "5" 09 kuni tarqatildi.
(2024-yil "5" 09 dagi 15 raqamli reyestr bayonnomasi).



Sh.D.Sayitbayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sh.Z.Muxitdinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

R.I.Israilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Jahon iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish sohalari katta va o'sib borayotgan ulushni egallaydi, chunki aholi daromadlari va boyliklari oshgani sayin xizmatlarga ko'proq pul sarflashadi¹. Bunday faoliyatning yorqin misollaridan biri bugungi kunda muvaffaqiyatli rivojlanishi nafaqat davlat tomonidan kichik biznesni qo'llab-quvvatlash sohasida tanlab olingan siyosatga, balki strategik tashabbuslarga ham bog'liq bo'lgan maishiy xizmatlardir. Maishiy xizmatlar bozorining global hajmi 2021-yilda 574144,3 million AQSh dollari tashkil etgan bo'lsa, bashorat qilinayotgan davrda o'rtacha yillik o'sish sur'ati 26,5% ni tashkil etib, 2027-yilga kelib 2350422,8 million AQSh dollarga yetishi kutilmoqda². O'z navbatida, bunday ko'rsatkichlarga erishish kichik biznesda maishiy xizmat sub'yektlarini samarali axborot bilan ta'minlash yo'lga qo'yilgani bilan bog'liq. Axborotni to'plash, qayta ishlash va tezkor taqdim etishning zamonaviy usullaridan foydalanish, shuningdek, ko'rsatkichlar tizimi hamda uni qo'llash samaradorligini baholash kichik biznesda maishiy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi, bu esa ushbu tadqiqotning dolzarbligini oldindan belgilab berdi.

Hozirgi vaqtda dunyo bo'ylab maishiy xizmat sohasida rasmiy ma'lumotlarga ko'ra 75,6 milliondan ortiq ishchilar mavjud hamda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda bu raqam barqaror ravishda oshib bormoqda³. Jahonda demografik va mehnat bozori o'zgarishlari natijasida yuzaga kelgan maishiy xizmat sohasiga ortib borayotgan talabni qondirish, shuningdek, aholini o'z-o'zini band qilish kabi ijtimoiy masalalarni hal qilish uchun ushbu sektorni kuchaytirish muhim⁴. Shu bilan birga, ushbu sohada bandlik sifati va mehnat sharoitlari, shuningdek, axborotlar ko'lami va ishchilarning ijtimoiy himoyalash masalalari dolzarb hisoblanadi.

O'zbekistonda iqtisodiyotni innovatsion rivojlanishi sharoitida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishlardan biri milliy iqtisodiyotning tarkibiy qismi hisoblangan maishiy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish, aholining maishiy xizmatlarga bo'lgan talabini qondirish asosida ularning hayot sifatini yanada yaxshilashdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrda qabul qilingan "“O'zbekiston-2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158 son Farmonida “Hududlarda xizmat ko'rsatish va servis sohaslarini rivojlantirish orqali xizmat ko'rsatish hajmini 3 baravarga oshirish” vazifasi belgilangan. Shuning uchun respublikamizda maishiy xizmat ko'rsatish sohasini yanada rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bu borada kichik biznesda maishiy xizmat sohasini rivojlantirishning nazariy, ilmiy va uslubiy masalalar chuqurroq o'rganish, maishiy xizmat sohasini axborot bilan ta'minlash kabi yo'nalishdagi tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

¹ <https://www.rba.gov.au/publications/smp/2013/nov/box-c.html>

² <https://www.linkedin.com/pulse/online-on-demand-home-services-market-size-66aaf>

³ <https://www.ilo.org/global/topics/domestic-workers/who/lang--en/index.htm>

⁴ <https://www.eurofound.europa.eu/en/employment-household-services-0>

to'g'risida", 2022-yil 27-yanvardagi "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-104-sonli qarori, 2020-yil 8-iyundagi "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini-o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4742-son qarorlari, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiya to'g'risida"gi farmonlari, 2019-yil 20-noyabrdagi PQ-4525-son "Mamlakatda biznes muhitini yanada yaxshilash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligini, ilmiy va amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Ushbu dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Kichik biznesda maishiy xizmat sohasining rivojlantirish bo'yicha bir qator xorijiy va mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan o'rganilgan. Bulardan A.Smit, Y.Shumpeter, R.Xizrich, M.Piters, F.Kotler P.A.Samuelson, V.D.Nordxaus kabilarni alohida ta'kidlash lozim⁵.

Kichik biznesda MDH mamlakatlari olimlari V.M.Vlasova, N.A.Baturina, L.A.Pashkevich, D.R.Gibadullina, D.G.Dem'yanov, Ye.Yu.Zayats, M.S.Egorixina, O.Yu.Rudakova, G.A.Gadjiyeva. Ya.P.Silinlar tomonidan maishiy xizmat ko'rsatish sohasining hududiy rivojlanishini modellashtirish, xizmat sifatini baholashni takomillashtirish, zamonaviy maishiy xizmatlar bozorini rivojlantirish xususiyatlari, mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlashdagi maishiy xizmatdagi muammola atroflicha o'rganilgan⁶.

Respublikamiz olimlaridan M.Q.Pardayev, I.S.Tuxliyev, M.A.Saidov, F.K.Achilova, Sh.I.Artiqova, B.A.Yerejepovalar xizmat ko'rsatish, shuningdek maishiy xizmat ko'rsatish sohasidagi muammolarni hal qilish bo'yicha nazariy hamda uslubiy jihatlarni o'z ilmiy ishlarida yoritib berishgan⁷.

⁵ Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Эксмо, 2016, – 1056 с. Шумпетер Й. Теория экономического развития. – М.: "Мысль", 1982, С. 159. Хизрич Р., Питерс М. Предпринимательство. – М.: 1991. – 220 с. Котлер Ф. Основы маркетинга. Краткий курс. / Пер. с англ. – М.: Издательский дом «Вильямс», 2007. – 656 с. ил – Парал. тит. англ. Пол А. Самуэльсон, Вильям Д.Нордхаус. Экономика: Пер с англ. – М.: «Лаборатория Базовых Знаний», 2000. -800 с.: ил.

⁶ Власова М.В., Батурина Н.А., Пашкевич Л.А. Мониторинг ассортимента и качества услуг на потребительском рынке // Вестник Орел ГИЭТ. 2020. № 1 (51). – 109-114 с.; Гибадуллина Д.Р. «Развитие сфер бытового обслуживания в России» Проблемы социально-экономической устойчивости региона. 2020. С. 74-77; Демьянов Д.Г. Моделирование территориального развития сферы бытовых услуг // Вестник Пермского университета. Серия: Экономика. 2014. № 3; Заяц Е.Ю. Совершенствование оценки качества обслуживания на предприятиях сферы бытовых услуг // 2014; Егорихина М.С., Особенности развития современного рынка бытовых услуг // Азимут научных исследований: экономика и управление. 2018. № 2 (23) (7). Гаджиева А.Г. Воспроизводственная роль сферы услуг в современной экономике: дис. канд. экон. наук. Москва.: 2018.; Силин Я.П. Инновационное развитие сферы услуг в национальной экономике: [монография] [отв. за вып. Н. Ю. Власова]; М-во образования и науки. Рос. Федерации, Урал. гос. экон. ун-т. – Екатеринбург : Изд-во Урал. гос. экон. ун-та, 2016. – 339 с;

⁷ Пардаев М.К. Хизмат кўрсатиш тармоқлари иқтисодий тининг айрим муаммолари. Монография.-Т.: «Наврўз» 2014.-264 б.; Тухлиев И.С. Туризм: назария ва амалиёт. (Учинчи нашр) – Т.: «Fan va texnologiyalar

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, yuqoridagi olimlar o'z ilmiy izlanishlarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish, maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatini tashkil etish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish, xizmatlar sifatini ta'minlash, maishiy xizmat sohasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlarni olib borganlar. Biroq ushbu ilmiy ishlanishlarda, kichik biznesda maishiy xizmatlar ko'rsatish sohasi rivojlantirishga oid masalalar yetarli darajada o'rganilmagan. Shundan kelib chiqib, aynan kichik biznesda maishiy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish bilan bog'liq muammolarni tadqiq etish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Dissertatsiya ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan muhandislik - texnologiya institutining ITM-6 "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kichik biznesda maishiy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- kichik biznesda maishiy xizmat ko'rsatish faoliyatining nazariy asoslash;
- kichik biznesda maishiy xizmat ko'rsatish sohasining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;
- kichik biznesda maishiy xizmat ko'rsatish sohasini biznes axboroti bilan ta'minlashning ahamiyatini ochib berish;
- Namangan viloyatida maishiy xizmat ko'rsatish sohasining holati va rivojlanish muammolarini tahlil qilish;
- Namangan viloyatida kichik biznesda maishiy xizmatlarni tashkil etish hamda rivojlanish holatini o'rganish;
- kichik biznesda maishiy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish ko'rsatkichlarining kompleks tizimini ishlab chiqish;
- iste'molchilar va maishiy xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik biznes sub'yektlarini monitoring qilish metodikasini ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'yekti Kichik biznesda faoliyat yuritayotgan maishiy xizmat ko'rsatish sub'ektlari hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti Kichik biznesda maishiy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish borasida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar yig'indisi hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya ishida analiz, sintez, induksiya va deduksiya, abstrakt-mantiqiy tahlil, ekonometrik modellar, qiyoslash, korrelyatsiya va regressiya va iqtisodiy –moliyaviy tahlil, ijtimoiy so'rovnoma hamda diskriminant tahlil usullaridan foydalanilgan.

nashriyot-matbaa uyi», 2021.- 421 bet.; Саидов А.М. Маиший хизмат кўрсатиш корхоналарида меҳнатни ташкил қилишни тақомиллаштириш йўллари. И.ф.н. дисс. – Самарқанд. СамИСИ. 2011. Ачилова Ф. К. “Уй-жой коммунал хизмат кўрсатиш самарадорлигини ошириш (шаҳрисабз тумани мисолида)” Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Т.: 2022.-14. Artikova Sh. I. «Maishiy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish» Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. S.: 2023. Yerejepova Bibisara Abibullaevna “Maishiy xizmatlar sifatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish”. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. S.: 2024.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “maishiy xizmat ko‘rsatish” tushunchasining iqtisodiy mazmuni kichik biznesda maishiy xizmat va uning rivojlanish qonuniyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni to‘liq va ishonchli tavsiflash, samarali tartibga solishda maishiy xizmat ko‘rsatuvchi kichik biznes faoliyat ko‘rsatkichlarining o‘ziga hos jihati nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

Namangan viloyati maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalarini tomonidan iste‘molchilar bozor talabining sifat va muhimlik darajasiga muvofiq xizmatlar tarkibini belgilovchi asosiy parametrlarini kasbiy ($4,6 > H_{kasb} < 0,1$), hududiy ($4,8 > H_{hudud} < 0,08$), daromad ($5,5 > H_{daromad} < 0,2$) mezonlari bo‘yicha miqdoriy chegaralariga ko‘ra ta‘minlash asoslangan;

Namangan viloyatida maishiy xizmat ko‘rsatish sohasini tartibga solish, samarali tarmoq siyosatini amalga oshirish, kichik biznesda maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalarini reestrini yaratish, baholash va rivojlanish darajasini aniqlashni maishiy xizmat ko‘rsatish sohasining yagona axborot markazini tashkil etish orqali takomillashtirish asoslangan;

Namangan viloyatida maishiy xizmatlar hajmiga ta‘sir etuvchi omillarning ekonometrik trend modellari asosida 2027-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kichik biznesda maishiy xizmat ko‘rsatish sohasining o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan;

kichik biznesda maishiy xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish ko‘rsatkichlari integrasiya tizimi takomillashtirilgan;

aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlanishini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar tizimi takomillashtirildi, jumladan, statistik ko‘rsatkichlardan tashqari, iste‘molchilar monitoringi jarayonida olingan ma‘lumotlar asosida hisob-kitob qilinadigan ko‘rsatkich guruhi ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, statistik ma‘lumotlarni O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi, xalqaro moliya institutlari va xorijiy davlatlarning rasmiy manbalaridan olinganligi, tadqiqotlar aniq me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, hududiy aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznes subyektlarining hisobot shakllari tahliliga bog‘langanligi hamda ishlab chiqilgan takliflarni amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ulardan aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznesni axborot bilan ta‘minlashda o‘zining ifodasini topganligi bilan ifodalanadi. Ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan O‘zbekistonda kichik biznesda maishiy xizmat sohasini tartibga solishga doir me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, amaliy chora-tadbirlar va yo‘l xaritalarini, istiqbolli rejalarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi tadqiqot natijalarini amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning nazariy xulosalari va materiallaridan oliy o‘quv yurtlarida “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik asoslari”, “Korxonalar iqtisodiyoti”,

“Mikroiqtisodiyot” fanlarining, o‘quv dasturlarini takomillashtirishda, bazasini mustahkamlashda va o‘quv jarayonlarida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kichik biznesda maishiy xizmat sohasini rivojlantirish yo‘llari bo‘yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “maishiy xizmat ko‘rsatish” tushunchasining iqtisodiy mazmuni kichik biznesda maishiy xizmat va uning rivojlanish qonuniyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni to‘liq va ishonchli tavsiflash, samarali tartibga solishda maishiy xizmati ko‘rsatuvchi kichik biznes faoliyat ko‘rsatkichlarining o‘ziga hos jihati oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun mo‘ljallangan “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik” nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-maydagi 232-sonli buyrug‘i). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida oliy o‘quv yurti talabalari hamda bo‘lg‘usi mutaxassislarda maishiy xizmat ko‘rsatuvchi kichik biznes faoliyat ko‘rsatkichlarining o‘ziga hos jihatlarni o‘rganishning nazariy asoslari bo‘yicha yangi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish imkoni yaratilgan;

Namangan viloyati maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalari tomonidan iste‘molchilar bozor talabining sifat va muhimlik darajasiga muvofiq xizmatlar tarkibini belgilovchi asosiy parametrlarini kasbiy ($4,6 > H_{kasb} < 0,1$), hududiy ($4,8 > H_{hudud} < 0,08$), daromad ($5,5 > H_{daromad} < 0,2$) mezonlari bo‘yicha miqdoriy chegaralariga ko‘ra ta‘minlash bo‘yicha takliflar O‘zbekiston savdo-sanoat palatasi tomonidan “Namangan viloyatida kichik biznes korxonalarini 2026 yilgacha bo‘lgan davrda rivojlantirishning hududiy dasturi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston savdo-sanoat palatasining 2024-yil 5-iyuldagi 9/04-25-11258-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifdan foydalanish natijasida hududlardagi maishiy xizmat ko‘rsatish natijalarining aniqligini oshirish hamda ushbu sohani hududlar bo‘yicha rivojlantirib borish imkonini beradi;

Namangan viloyatida maishiy xizmat ko‘rsatish sohasini tartibga solish, samarali tarmoq siyosatini amalga oshirish, kichik biznesda maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalari reestrini yaratish, baholash va rivojlanish darajasini aniqlashni maishiy xizmat ko‘rsatish sohasining yagona axborot markazini tashkil etish orqali takomillashtirish bo‘yicha takliflar O‘zbekiston savdo-sanoat palatasi tomonidan foydalanilgan (O‘zbekiston savdo-sanoat palatasining 2024-yil 5-iyuldagi 9/04-25-11258-sonli ma‘lumotnomasi). Taklifdan foydalanish natijasida Namangan viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning 2021-2026 yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqishda foydalangan holda mavjud imkoniyatlardan yanada samarali foydalanish va hududlarda maishiy xizmat sohasining iqtisodiy samaradorligini 12,0 foizga oshirish imkoni yaratilgan;

Namangan viloyatida maishiy xizmatlar hajmiga ta‘sir etuvchi omillarning ekonometrik trend modellari asosida 2027-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari O‘zbekiston savdo-sanoat palatasi tomonidan foydalanilgan (O‘zbekiston savdo-sanoat palatasining 2024-yil 5-iyuldagi 9/04-25-11258-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida hududlarda uzoq

muddatli istiqbolda maishiy xizmatlar hajmi asosiy ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni ta'minlash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari, 5 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarida 5 ta ilmiy maqolalar, 1 tasi xorijiy va 4 tasi respublika jurnallarida nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ilmiy ahamiyati asoslangan, tadqiqotning respublikada olib borilayotgan fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekti va predmeti, uning ilmiy yangiliklari va amaliy natijalari ochib berilgan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Kichik biznes faoliyatida maishiy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida kichik biznesda maishiy xizmat ko'rsatish faoliyatining nazariy jihatdan o'rganilgan, kichik biznesda maishiy xizmat ko'rsatish sohasini o'ziga xos xususiyatlarini ochib berilgan, kichik biznes maishiy xizmat ko'rsatish sohasini biznes axboroti bilan ta'minlashning ahamiyati bo'yicha ilmiy yondashuvlar taklif etilgan.

Kichik biznesda maishiy xizmat sohasining o'ziga xos xususiyatlari xizmatlar ko'rsatish jarayonining o'ziga xosligi, shuningdek, aholini o'z-o'zini band qilish imkoniyati mavjudligi bilan belgilanadi. Maishiy xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik biznes faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini tushunish uchun "maishiy xizmat ko'rsatish sohasi" atamasining o'zi talqinini ko'rib chiqish, shuningdek, uning shakllanishiga yordam beradigan xususiyatlar, funksiyalar va omillarni aniqlash muhimdir.

G. A. Menshikovaning ta'kidlashicha, “maishiy xizmat - bu ishlab chiqarishdan tashqari sohaning bir qismi bo'lib, uning maqsadi kundalik hayotni tashkil etishga yordam berish (uy vazifalarini yoki o'z-o'ziga xizmat qilish uchun mehnat xarajatlarining bir qismini), tashqaridagi odamlarga (xizmatchilarga) yordam berishdir⁸.

V. I. Borisevich, P. S. Geyzler, V. S. Fateyev fikricha, «maishiy xizmat - maishiy xizmatga bo'lgan muayyan individual ehtiyojlarni qondirishning ijtimoiy

⁸ Меньшикова, Г. А. Экономика и социология непродовольственной сферы / Г. А. Меньшикова. – СПб. : С.-Петербург. гос. ун-т, 2001. – 195 с

tashkil etilgan shaklidir. Bu tarmoq asosan aholi buyurtmalari asosida har xil turdagi xizmatlarni bajaradigan korxonalar va tashkilotlarni birlashtiradi⁹.

A.Soliyevning fikricha, "Xizmatlar bozori - aholiga maishiy, ma'rifiy, tibbiy, texnik, kommunal, madaniy, aloqa, transport, konsalting, injiring, lizing va boshqa xizmatlar ko'rsatish bo'yicha oldi-sotdi munosabatlarini ifodalaydi. Uning ham o'ziga xos shaxobcha va muassasalari shakllanadi. Iste'mol tovarlari va xizmatlar bozorlarining o'xshashligi shundaki, ular to'g'ridan-to'g'ri insonlar ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan"¹⁰. Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinib turibdiki, xizmatlar milliy ijtimoiy mahsulotning ajralmas qismi hisoblanib, ehtiyojlarni qondirish vositalari, usullariga alohida urg'u berilganligidir. Ta'riflarning muhim tomoni insonlarning muayyan ehtiyojlarini qondiradigan yoki iqtisodiy manfaat keltiruvchi faoliyat turi hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanuvchi bir qator olimlar tomonidan maishiy xizmati mazmun-mohiyatini ochib berishga qaratilgan nazariy modullar ishlab chiqilgan bo'lib, ular mazmunan boshqa xizmat turlaridan farq qilishini e'tirof etganlar. Maishiy xizmat dasturini ishlab chiqishga ta'sir ko'rsatuvchi quyidagi asosiy xususiyatlarga egaligi ko'rsatib o'tiladi:

nomoddiylik - ko'rsatish, ko'rish, tatib ko'rish, tashish, saqlash, qadoqlash yoki o'rganish mumkin emas. Bularning barchasi faqat yakuniy natijaga nisbatan mumkin (bu bo'lgan - bu);

ajralmaslik - xizmat faqat buyurtma kelganda yoki mijoz munosabatga kirishganda taqdim etilishi mumkin, ya'ni xizmatlar bir vaqt hamda makonda taqdim etiladi va iste'mol qilinadi;

o'zgaruvchanlik (standartlashtirilmagan) - mijozlar xizmat ko'rsatish jarayonining bevosita ishtirokchilari bo'lib, uning yakuniy ijobiy natijadorlik ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir qiladi;

saqlash imkoniyatining mavjud emasligi - moddiy ehtiyojlardan farqli o'laroq, ularni kelajakda foydalanish uchun ishlab chiqarish mumkin emas. Ma'lumki, sotsial-ma'naviy ehtiyojlar asosan xizmatlardan iborat bo'lib, ular ma'lum faoliyat shakliga ega, ularning yaqqol moddiy ko'rinishi yo'q.

Maishiy xizmat ko'rsatishning maqsadi, bizning fikrimizcha, kichik biznes sub'yektlarining ko'rsatilayotgan xizmatlarining iste'molchilar tomonidan yuqori baholanishi, muntazam foydalanishi, foydalanishdagi qulaylik va ustunliklar hisobiga bozordagi ulushini ortib borishi va pirovard natijada yuqori foydalilik darajasini ta'minlashga qaratilgan moddiy va intellektual harakatlarni amalga oshirishdan iborat. Jumladan,

- iste'molchi yoxud xaridorlarning ko'rsatilgan xizmatlardan qoniqishi;
- doimiy mijozlarga ega bo'lish va ular geografiyasini kengaytirish;
- xizmatlarning qadr-qiyamatini oshirish;
- xizmat ko'rsatish sifatini oshirish;
- xizmat ko'rsatishdan olinadigan daromad va uning o'sishi.

⁹ Борисевич, В. И. Экономика региона: учеб. пособие / В. И. Борисевич, П. С. Гейзлер, Б. К. Фатеев. – Минск: БГЭУ, 2002. – 432 с.

¹⁰ Солиев А., Бузрукханов С. Маркетинг. Дарслик, Т.- 2010.

Tadqiqotlardan aniqlanishicha, ehtiyojlarning yuksalishi maishiy xizmati ko'rsatuvchi kichik biznes faoliyati tobora innovatsion tus olib borayotgan xizmat turlarini taklif etishga turtki bermoqda.


1-jadval

Maishiy xizmati ko'rsatuvchi kichik biznes faoliyat ko'rsatkichlari¹¹

| № | Ko'rsatkichlar | O'ziga xos jihati |
|----------|----------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1 | Tovar va xizmatlar bozori tadqiqotlari | Xizmatlar bozorida yangi o'zgarishlarni bilish imkoni yaratiladi. |
| 2 | Bozor holati va uni rivojlanish tendensiyalarini aniqlash; | Taklif etish rejalashtirilgan maishiy xizmatlar turlari bo'yicha xulosa olish mumkin bo'ladi. |
| 3 | Bozor kon'yunkturasi tahlili | Bu ma'lum bir vaqtda, hududda maishiy xizmatlarga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi tafovut aniqlanadi. |
| 4 | Bozordagi raqobat muhiti tahlili | Maishiy xizmat turini aniqlash, uning narxini belgilashga xizmat qiladi. |
| 5 | Bozorni segmentlash va biznes hamkorlarni izlash | Maishiy xizmat faoliyatini kengaytirish, uning filiallarini boshqa hududlarda tashkil etish imkoniyati yaratiladi. |
| 6 | Narxlar monitoringi, tahlili va sharhi | Maishiy xizmat ko'rsatish narxлари aniqlanadi va monitoringi amalga oshiriladi |
| 7 | Tashqi bozorni o'rganish | Qo'shni mamlakatlarda maishiy xizmat ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar tadqiq etiladi. |
| 8 | Xizmat ko'rsatishda foydalaniladigan axborot bazasini shakllantirish | Maishiy xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes faoliyatini rivojlantiriladi va rag'batlantiriladi |
| 9 | Tijorat takliflarini ishlab chiqish | Innovatsion va raqamlashtirilgan maishiy xizmat ko'rsatish turlari taklif etiladi |

Shuningdek, J.Ratmel tomonidan ishlab chiqilgan tadbirkorlik xizmatining nazariy asosidan foydalangan holda maishiy xizmat ko'rsatishning funksional vazifasining xususiyatlariga aniqlik kiritilgan (1-rasm).

¹¹ Muallif ishlanmasi



1-rasm. Maishiy xizmat ko'rsatishning modeli¹²

Taklif etilgan modelda maishiy xizmat funksional vazifasini maishiy xizmatning mazmun-mohiyatini ifoda etuvchi vazifasi sifatida baholash mumkin. Ya'ni, bunda asosiy e'tibor iste'molchi ehtiyojini qondirishga qaratilgan bo'lib, model muallifi ehtiyojni cheksiz deb qaraydi. Bunday qarashlar zamonaviy boshqaruv va biznes ilmda marketing-miks yoki "4P" ((tovar (product), baho (price), kommunikatsiya (promotion), taqsimlash kanallari (place)) shaklida ham ifodalanadi. Bunda, "4P" iste'molchilar hatti-harakati, marketing ya'ni tadbirkorlik tadqiqotlari, bozorni segmentlash, raqobatchilar o'rtasida tovar-xizmatning maqomini (pozitsiyasini) belgilanishi tahlil qilinadi. Olinadigan daromadni maksimallashtirish bo'yicha iste'molchilarning ehtiyojlari va hatti-harakatlari muntazam monitoring qilib boriladi.

Bizning fikrimizcha, olimlarning har biri– maishiy xizmatlarni olish jarayonida iste'molchilarning ehtiyojlarini qondirishga individual yondashuvni ta'kidlaydi. Bundan kelib chiqqan holda, maishiy xizmat ko'rsatish sohasi aholining aniq buyurtmalarini eng samarali qondirishga yo'naltirilgan, ularning har biriga tabaqalashtirilgan yondashuv doirasida maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarining tashkiliy faoliyati ekanligini xulosa qilishimiz mumkin. Ta'kidlash joizki, huquqiy nuqtai nazardan maishiy xizmat ko'rsatish sohasi "tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'iy nazar, yuridik shaxslarning, shuningdek, maishiy xizmatlar ko'rsatish (ishlarni bajarish) bilan shug'ullanadigan fuqarolar-kichik biznesda maishiy xizmat ko'rsatish faoliyatidir.

Yuqorida o'rganilgan nazariy asoslardan kelib chiqib ta'riflash mumkinki, "maishiy xizmat ko'rsatish" tushunchasining iqtisodiy mazmuni kichik biznesda maishiy xizmat va uning rivojlanish qonuniyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni

¹² Новаторов Э.В. Маркетинг услуг: теория и технология. Монография, СПб, ИП Петров Д.А., 2015 г. 200 стр.

to'liq va ishonchli tavsiflash, samarali tartibga solishda maishiy xizmati ko'rsatuvchi kichik biznes faoliyat ko'rsatkichlarining o'ziga hos jihati nuqtai nazaridan takomillashtirish lozim.

Dissertatsiyaning **“Kichik biznesda maishiy xizmatlar sohasini rivojlanishining hozirgi holati tahlili”** nomli ikkinchi bobida Namangan viloyatida maishiy xizmat ko'rsatish sohasining holati va rivojlanish muammolari, Namangan viloyatidagi istemolchilarning maishiy xizmatlariga bo'lgan talablari va ularni modellashtirish hamda maishiy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish ko'rsatkichlarining kompleks tizimini qo'llash masalalari yoritilgan.

Maishiy xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi ko'p jihatdan uning holatini baholashning to'liqligi va ob'ektivligiga bog'liq. Shu maqsadda maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyatini tavsiflovchi quyidagi statistik ko'rsatkichlarni hisoblash ko'zda tutilgan: aholiga maishiy xizmatlarni sotish hajmi (maishiy xizmat turlari tarkibini taqsimlash bilan); aholi jon boshiga maishiy xizmatlar hajmi, shu jumladan maishiy xizmat turlari bo'yicha; aholiga maishiy xizmatlarning jismoniy hajmi indeksleri (shu jumladan xizmatlar turlari bo'yicha); shuningdek, xizmatlar ko'rsatish uchun aholidan buyurtmalarni qabul qiluvchi maishiy xizmatlari ob'ektlari soni (qabul qilish punktlari soni ko'rsatilgan holda).

Kichik biznesda maishiy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratish turli manbalardan olingan ma'lumotlarni to'plash va jamlashni nazarda tutadi. Shuning uchun biz birinchi navbatda Namangan viloyatida 2019-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davrda maishiy xizmat sohasining rivojlanishiga oid statistik ma'lumotlarning tahlilini taqdim etamiz.

2-jadval

Namangan viloyatida 2019-2023 yillarda tashkil etilgan maishiy xizmat ko'rsatish shahobchalari¹³

birlik

| № | Shaxar, tumanlar nomi | 2019-yil | 2020-yil | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil | 2023 yilni 2022 yilga nisbati(%) |
|----------|------------------------------|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------------------------------|
| | Viloyat bo'yicha | 790 | 865 | 263 | 471 | 576 | 122,3 |
| 1 | Namangan sh. | 149 | 131 | 88 | 119 | 186 | 156,4 |
| 2 | Mingbuloq | 60 | 76 | 12 | 37 | 41 | 111,2 |
| 3 | Kosonsoy | 63 | 41 | 12 | 41 | 36 | 87,3 |
| 4 | Namangan | 21 | 50 | 0 | 8 | 6 | 78,6 |
| 5 | Norin | 53 | 53 | 9 | 47 | 62 | 132,6 |
| 6 | Pop | 61 | 154 | 43 | 15 | 5 | 32,9 |
| 7 | To'raqo'rg'on | 82 | 69 | 15 | 17 | 7 | 42,9 |
| 8 | Uychi | 67 | 111 | 19 | 16 | 9 | 56,2 |
| 9 | Uchqo'rg'on | 26 | 27 | 16 | 27 | 48 | 178,4 |
| 10 | Chortoq | 35 | 47 | 19 | 37 | 36 | 98,4 |
| 11 | Chust | 103 | 57 | 11 | 52 | 45 | 86,7 |
| 12 | Yangiqo'rg'on | 70 | 49 | 19 | 55 | 56 | 102,5 |

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Namangan viloyatida maishiy xizmat ko'rsatish shahobchalari soni tahlil qilingan yillar davomida kamaygan.

¹³ Namangan viloyati sttistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

2019-yilda viloyat bo'yicha jismoniy shaxslar tomonidan 790 ta maishiy xizmat ko'rsatish shaxobchalari tashkil etilgan bo'lsa, 2023 yilga kelib bu ko'rsatkich 576 tani tashkil etgan. Namangan viloyatidagi shahar va tumanlarda ham bu ko'rsatkich dinamikasi turli xil bo'lgan. Jumladan Namangan tumanida 2019 yilda 21 ta, 2020 yilda 50 ta, 2021 yilda tashkil etilmagan, 2023 yilda 6 tani tashkil etib, 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 78,6 % ga kamayganligini ko'rishimiz mumkin.

Namangan viloyati shahar va tumanlarida o'rganish davrida Norin tumani, Namangan shahri va Uchqo'rg'on tumanlarida maishiy xizmat ko'rsatish shahobchalari soni o'sish dinamikasida eng yuqori bo'lgan. Buning asosiy sabablaridan biri, ushbu shahar va tumanlarda aholini maishiy xizmatga bo'lgan ehtiyojini ortishi bilan bog'liq.

Shuningdek, maishiy xizmat ko'rsatish shahobchalarini tashkil etish, aholiga xizmat ko'rsatish sohasida hal qilinishi kerak bo'lgan bir qator mummolar mavjud. Jumladan, maishiy xizmat ko'rsatish bo'yicha aholida iqtisodiy, huquqiy bilimlarning yetarli emasligi ham ushbu sohani rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holatni tadqiqot obyekti bo'lgan Namangan shahridagi kir yuvish xizmatiga asoslangan "Yangi Dunyo" MCHJning moliyaviy ko'rsatkichlari natijalaridan ham ko'rishimiz mumkin (3 jadval).

3-jadval

"Yangi Dunyo" MCHJda sof foyda va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili¹⁴ (mln. so'mda)

| № | Ko'rsatkichlar | 2019-yil | 2020-yil | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil | 2023-yilda 2022-yilga nisbatan o'zgarishi (%) |
|---|----------------------------------------------------------------|----------|----------|----------|----------|----------|-----------------------------------------------|
| 1 | Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan sof tushum | 249,1 | 286,5 | 306,5 | 324,9 | 337,9 | 108,0 |
| 2 | Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat) tannarxi | 146,3 | 168,2 | 180,0 | 190,8 | 198,5 | 106,2 |
| 3 | Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishning yalpi foydasi | 102,7 | 118,1 | 126,4 | 134,0 | 139,3 | 109,9 |
| 4 | Davr xarajatlari | 55,4 | 63,7 | 68,2 | 72,3 | 75,2 | 104,4 |
| 5 | Asosiy faoliyatdan olingan foyda | 47,3 | 54,4 | 58,2 | 61,7 | 64,2 | 103,2 |
| 6 | Foyda solig'i to'langunga qadar foyda | 24,7 | 28,4 | 30,4 | 32,2 | 33,5 | 104,8 |
| 7 | Foyda solig'i va boshqa majburiy to'lovlar | 10,3 | 11,8 | 12,7 | 13,4 | 14,0 | 106,1 |
| 8 | Hisobot davridagi sof foyda | 14,4 | 16,6 | 17,7 | 18,8 | 19,5 | 103,9 |

¹⁴ "Yangi Dunyo" Mas'uliyati cheklangan jamiyatning 2019-2023 yillardagi yillik statistik hisobotlari ma'lumotlari.

3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2023-yilda sof foydaning miqdori 19,5 mln so'mni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 7 mln so'mga oshgan. Kichik biznes subyekting mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishning yalpi foyda tahliliga ko'ra, 2019-yilda 102.7 mln so'mni tashkil etib, 2021 va 2022-yillarda mos ravishda 126,4 va 134,0 mln so'mga yetganligini va 2023-yil yakuniga ko'ra 139,3 mln so'mni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin.

Namangan viloyat maishiy xizmatlar bozorini kompleks tadqiqotlar amalga oshirildi va iste'molchilar segment xususiyatlari va xatti - harakatlari tadqiq qilindi. Maishiy xizmatlar bozorida tadqiqot o'tkazishdan maqsad, ushbu bozorni rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash, strategik vazifalar belgilashdan iborat. Strategik maqsadlarni belgilashda esa xizmatlar bozoridagi mavjud axborot tahlilini o'tkazish lozim bo'ladi.

Tadqiqotni amalga oshirishda axborotlarni to'plash usullari hisoblangan ijtimoiy so'rovnoma, savol-javob va kuzatuv usullaridan keng qo'llaniladi. Ijtimoiy so'rovnomada eng ko'p tarqalgan tadqiqot vositasi anketa so'rovnoma usulidir. Tadqiqotimizni amalga oshirishda axborotlarni yig'ishning samarali va eng ko'p tarqalgan vositasi sifatida anketa so'rovnoma usulidan foydalanildi.

Namangan viloyati tumanlar kesimida so'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning taqsimoti quyidagi 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Ijtimoiy so'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning yashash joyi bo'yicha taqsimoti ¹⁵

| № | Tuman nomi | Soni | Foizda |
|-----|----------------|------|--------|
| 1. | Namangan sh | 49 | 27,2 |
| 2. | Uchqo'rg'on | 10 | 5,6 |
| 3. | Uychi | 13 | 7,2 |
| 4. | Chortoq | 9 | 5 |
| 5. | Pop | 13 | 7,2 |
| 6. | Kosonsoy | 6 | 3,3 |
| 7. | Norin | 13 | 7,2 |
| 8. | Namangan tuman | 7 | 3,9 |
| 9. | Yangiqo'rg'on | 6 | 3,3 |
| 11. | Chust | 12 | 6,7 |
| 12. | Mingbuloq | 5 | 2,8 |
| 13. | To'raqo'rg'on | 12 | 6,7 |
| 14. | Boshqa | 25 | 13,9 |
| | Jami | 180 | 100,0 |

Diskriminant tahlilni o'tkazishda statistik dasturiy paketlardan foydalanish hisoblashni qulaylashtirish va aniqlikni asoslashga yordam beradi. Shunga ko'ra avvalo mamlakat iste'molchilarning maishiy xizmatlarga bo'lgan talablarini aniqlash bo'yicha anketa natijalari bo'yicha olingan ma'lumotlarni "SPSS 22

¹⁵ Muallif ishlanmasi

Statistics” dasturiy paketidan foydalanib, iste’molchilarning tanlangan omillar bo’yicha sifat o’zgarishlariga qay daraja bog’liqligini bo’yicha dispersion tahlil o’tkaziladi. O’zgaruvchilar tasnifi quyidagi 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

Diskriminant tahlil uchun o’zgaruvchilarni tasnifi¹⁶

| № | Omillar | Belgilanishi | Tasnifi |
|--------------------------------------------|----------------------------------------------|----------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Bog’liq (erksiz) o’zgaruvchilar - Y | | | |
| 1. | Kasbi | Y ₁ | Anketa so’rovnomasida jami 7 tadan ortiq kasbdagi iste’molchilar ishtirok etdi. Iste’molchilarning kasblari bo’yicha maishiy xizmat ko’rsatishga bo’lgan talablar o’rtasida farq mavjud |
| 2. | Iste’molchilar jinsi | Y ₂ | Iste’molchilar jinsi bo’yicha erkak va ayollarga bo’lingan bo’lib, maishiy xizmatlarga bo’lgan talablarini baholashda ular o’rtasida tafovutlar mavjud |
| 3. | Yashash joyi | Y ₃ | Iste’molchilar yashash joyi ham ikki guruhga bo’lingan bo’lib, ular: shaharda va qishloqda yashovchilar sifatida guruhlangan |
| 4. | Yashash hududi | Y ₄ | Anketa so’rovnomasida viloyat tumanlarining iste’molchilari o’rtasida maishiy xizmatlarga bo’lgan talablarida tafovut mavjud |
| 5. | Daromad darajasi | Y ₅ | Iste’molchilarning daromad darajasi maishiy xizmatlarga va sifatiga turlicha baho berishini nazarda tutib olti guruhga ajratilgan ya’ni: daromadi yo’qlar, past daromadlilar (1-2 mln so’m), o’rta daromadlilar (2-3, 3-4 mln so’m), yuqori daromadlilar (4-5 mln so’m), eng yuqori daromadlilar (5 mln so’mdan yuqori) |
| Mustaqil (erkli) o’zgaruvchilar – X | | | |
| 6. | Maishiy xizmatlardan foydalanish darajasi | X ₁ | Iste’molchilarning maishiy xizmatlardan foydalanish 5 darajada baholandi: yo’q, ozroq, o’rtacha, yuqori, juda yuqori |
| 7. | Maishiy xizmatlarni muximlilik darajasi | X ₂ | Maishiy xizmatlar muhimlilik darajada baholandi: yo’q, ozroq, o’rtacha, yuqori, juda yuqori |
| 8. | Maishiy xizmatlarga qilinadigan xarajatlari | X ₃ | Iste’molchilarning bir yillik daromadini maishiy xizmatlarga sarflashi 5 darajada baholandi: yo’q, ozroq (1 mln so’mgacha), o’rtacha (1-2 mln so’m, 2-3 mln so’m), yuqori (3-4 mln so’m), juda yuqori (5 mln so’mdan yuqori) |
| 9. | Maishiy xizmatlarga sifat darajasi ahamiyati | X ₄ | Maishiy xizmatlar sifat muhimlilik darajasi baholandi: yo’q, ozroq, o’rtacha, yuqori, juda yuqori |

¹⁶ Muallif ishlanmasi.

Iste'molchilar segmentlarini maishiy xizmatlarga bo'lgan munosabatlariga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi farqli jihatlarni taqqoslashda diskriminant tahlil usullaridan foydalaniladi. Diskriminant tahlilda shunday holatlarda ishlatiladiki, mustaqil o'zgaruvchilar turli intervallarga ega bo'lgan xususiyatlarni baholash imkonini beradi. Iste'molchilarning maishiy xizmatlarga foydalanish darajalarini aniqlash maqsadida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari bo'yicha har bir bog'liq o'zgaruvchiga nisbatan diskriminant tahlili "SPSS 22 Statistics" dasturiy paketi asosida natijalar olindi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi iste'molchilarning maishiy xizmatlardan foydalanishga bo'lgan iste'molchilar segment xususiyatlari va xulq atvorini aniqlashga qaratilgan. Shunga asosan, tadqiqotda quyidagi gipotezalarni qo'yilgan:

H1 – Maishiy xizmatlarga bo'lgan talab kasb faoliyatiga nisbatan farqlari mavjud va yuqori ta'sirga ega;

H2 - Iste'molchilarning maishiy xizmatlarga bo'lgan munosabatlari ularning yashash hududiga nisbatan farqlari mavjud va yuqori ta'sirga ega;

H3 - Iste'molchilarning maishiy xizmatlarga bo'lgan munosabatlari ularning daromad darajasiga bog'liq va yuqori ta'sir darajasiga ega;

Diskriminant tahlilini "SPSS 22 statistics" paket dasturi asosida belgilab olingan har bir o'zgaruvchiga nisbatan funksiyasini tuzib keltirilgan gipotezalarni asoslanadi. Diskriminant tahlilda tanlangan o'zgaruvchilarning statistik ahamiyatliligini baholovchi testlar aniqlandi. Wilks' Lambda statistikasi qiymati $[0,1]$ oralig'ida o'zgaradi. Agar Wilks Lambda statistikasi qiymati 0 ga yaqin bo'lsa demak, bu yaxshi diskriminatsiya mavjud degani, agar 1 bo'lsa ajralish xususiyati past degani va bu holat p-value normal taqsimotini 0,05 darajada aniqlanganligi esa xatolikning yuzaga kelishi kam ekanligini tasdiqlaydi.

F kriteriya $df_1 = 3$ va $df_2 = 180$ kuzatuvlarda "p-value"ning 0,05 qiymatida 3,86 jadval qiymatini qabul qiladi va $F(\text{haqiqiy}) \geq F(\text{jadval})$ bo'lishi o'rganilayotgan omil belgilarining natijaviy belgiga bo'lgan ta'siri kuchli $F(\text{haqiqiy}) \leq F(\text{jadval})$ bo'lsa, kuzatilayotgan o'zgaruvchi natijaviy omillarga bog'liq emas degan xulosaga kelinadi.

H₁ – gipoteza. Maishiy xizmatlarga bo'lgan talab kasb faoliyatiga nisbatan farqlari mavjud va yuqori ta'sirga ega.

Gipotezani asoslash maqsadida diskriminant tahlil amalga oshirildi. Bog'liq o'zgaruvchi sifatida tanlangan iste'molchilar kasbi va unga ta'sir etuvchi omillar sifatida qabul qilingan o'zgaruvchilar bo'yicha o'rtacha miqdorlar va standart xatolik natijalaridan ma'lumki guruhlar bo'yicha o'rtacha qiymatlar o'qituvchi bank kasb egalari natijalarga ega bo'ldi.

Diskriminant tahlilda tanlangan o'zgaruvchilarning statistik ahamiyatliligini baholovchi testlar aniqlandi. Wilks' Lambda statistikasi qiymati omillarda X1 (0,853), X2 (0,765), X3 (0,925), X4 (0,869), qiymatni qabul qildi. Demak, iste'molchilarni maishiy xizmatlarga bo'lgan munosabatlariga ta'sir qiluvchi omillarni tahlilida X3-istemolchilar daromadi ahamiyati barcha kasb egalarida muhimligi aniqlandi.

Olingan funksiyalar iste'molchilarning kasblari bo'yicha omillarning qay darajada ahamiyatliligini farqlash imkonini beradi. 1-ilova ma'lumotlariga ko'ra olingan diskriminant funksiyalar quyidagicha:

$$\begin{aligned}
Y_{\text{o'qituvchi}} &= -18,173 + 3,951X_1 - 0,150X_2 + 1,130X_3 + 3,650 X_4 \\
Y_{\text{boshqa kasb}} &= -24,664 + 3,287X_1 + 0,609X_2 + 1,141X_3 + 2,650 X_4 \\
Y_{\text{bank xodimi}} &= -20,441 + 3,771X_1 - 1,321X_2 + 2,509X_3 + 3,650 X_4 \\
Y_{\text{rahbar(korxon)}} &= -20,500 + 4,017X_1 + 3,272X_2 + 3,314X_3 + 4,650 X_4 \\
Y_{\text{tadbirkor}} &= -19,199 + 3,758X_1 + 1,389X_2 + 2,248X_3 + 3,650 X_4
\end{aligned}$$

Diskriminant funksiyasidan ma'lum bo'lmoqdaki, o'qituvchilarning maishiy xizmatlarga bo'lgan talablarini shakllanishiga eng ahamiyatli omil korxonah rahbarlarining sifat darajasiga e'tibori darajasi 4,650, daromadidan xarajatlari darajalari 3,314 ko'rsatkichni qabul qildi. Lekin daromadlarini sarflanishi o'qituvchilarda manfiy 0,150 ko'rsatkichni, bank xodimlarida 1,321 ko'rsatkichni, qabul qildi.

H₂ – gipoteza. Iste'molchilarni maishiy xizmatlariga bo'lgan munosabatlari ularning yashash hududiga nisbatan farqlari mavjud va yuqori ta'sirga ega ekanligi asoslanishi.

Tahlil natijalarida kanonik korrelyatsiya ko'rsatkichi birinchi funksiyada 0,198 qiymatni qabul qildi, 79,1 % dispersiyaga ega ekanligini asoslaydi. O'rta darajasi Wilks' Lambda testi asosida tasdiqlanmoqda va uning qiymati 0,951 ko'rsatkichga teng bo'lib, kvadrati 36,455 tashkil qildi yuqori diskriminatsiya mavjud degan xulosani berish mumkinligini asoslaydi.

Har bir guruh bo'yicha olingan diskriminant funksiyalar quyidagicha:

$$\begin{aligned}
Y_{\text{shahar}} &= -15,665 + 3,430X_1 - 0,141X_2 + 2,081X_3 + 4,800X_4 \\
Y_{\text{shaharcha}} &= -17,245 + 3,506X_1 - 0,085X_2 + 2,256X_3 + 4,804X_4 \\
Y_{\text{qishloq}} &= -14,450 + 3,277X_1 - 0,189X_2 + 2,003X_3 + 4,808X_4
\end{aligned}$$

Iste'molchilarni maishiy xizmatlarga bo'lgan talablari shakllantirishda belgilash bo'yicha alohida olingan diskriminant funksiyalar shahar aholisi maishiy xizmatlarga xarajatlari qolgan joylarga nisbatan ijobiy deb baholashimiz mumkin.

H₃ – gipoteza. Iste'molchilarni maishiy xizmatlarga bo'lgan munosabatlari ularning daromad darajasiga bog'liq va yuqori ta'sir darajasiga ega ekanligini asoslanishi.

Gipotezani asoslash uchun ko'p omilli diskriminant tahlilidan foydalanib iste'molchilarni daromad darajasi bo'yicha 6 ta toifaga ajratilgan bo'lib, ular daromad yo'qlar, past (1-2 mln so'm), o'rta (2-4 mln so'm), yuqori (4-5 mln so'm) va juda yuqori daromadlilar (5 mln so'mdan yuqori) sifatida toifalangan.

F kriteriya $df_1 = 4$ va $df_2 = 180$ kuzatuvlarda "p-value"ning 0,05 qiymatida 3,86 jadval qiymatini qabul qiladi va bizning modelda X_4 (haqiqiy) $\geq F(\text{jadval})$ bo'lishi o'rganilayotgan toifali o'zgaruvchiga nisbatan qo'llanilayotgan omillarning natijaviy belgiga bo'lgan ta'siri mavjudligini va X_1, X_2, X_3 omillar $F(\text{haqiqiy}) \leq F(\text{jadval})$ qiymatni qabul qilib natijaviy belgiga ta'siri yo'qligi tasdiqladi.

